

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**5/2-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

**5/2-сан 2024**

**октябрь**

**Шолкемлестириүшилдер:**

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлendirиү Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбай МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Мариғжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Мұқаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдана РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САПАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мұхтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбай ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҮЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Аскарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Alniyazov A.I.	Ana tilinde ózinshe pikirlewdi rawajlandírw mäseleleri	8
Suyunov B.T.	Lakunar birliklar tezaurusi	16
Shofqorov A.M.	Kelishik kategoriyasining o'rganilish tarixiga doir	20
Xudaykulov Sh.U.	Xorijiy til ta'limda kognitiv-kommunikativ yondashuv	26
Hafizova M.A.	Tarjima va badiiy mahorat	34

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Abdullayeva M.R.	Pedagogik yo'nalishdagi talabalarning huquqiy kompetensiyalari muhim xususiyatlari	41
Baxodirova U.B.	Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda virtual ta'lim texnologiyalardan foydalanan muammolar	47
Shonazarova S.R.	O'quv jarayonida falsafiy aksiolistik yondashuvni takomillashtirishning pedagogik shart - sharoitlari	55
Sabirova O. Sh.	Zamonaviy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanan	61
Bozorov H.N.	Nofizik ta'lim ta'lim yo'nalishlarining malakaviy tavsiflari tahlili, kasbiy kompetensiyalar tuzilmasi va ierarxiyası	66
Nigmanova U.B.	Bo'lg'usi o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini tadbiq etish yo'llari	72
Alimov M.	Iqtidorli yoshlar-kelajagimiz poydevori	77
Qurbanova M.E., Abdulaxatova M.A.	Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri usulida talabalarga kimyo fanini o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish masalalari	81
Qurbanova M.E., Abdulaxatova M.A.	Klaster yondashuvi asosida bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	85
Arslonova G.K.	Individual ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari	90
Matkarimova M.K.	Ingliz tili fanini o'qitishda o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish	96
Umirova N. J.	Individual yondashuv asosida bo'lajak maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	101
Эшанев Н.Ж.	Замонавий инновацион таълим мухитида мобил мутахассис тайёрлашнинг ижтимоий зарурат эканлиги илмий тадқиқотларда акс этиши	105
Sa'dullayeva M.H.	Mukammal xotira va eslab qolish sirlari	114
Mirzakarimov X.Yu.	Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishning konseptual jihatlari	122
Eshnaev N.J.	OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash va kasbiy yo'nalganlikning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanishi hamda samaradorligi	129
Dehqanova M.G.	Daktilema paydo bo'lishi va uning foydalananish turlari	135
Karatayeva L.U.	Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari	141
Yuldasheva S.M.	Shaxsning kasbiy faoliyatida uchraydigan asosiy psixologik muammolar	150
Amangeldiyev S.N.	O'smirlarda kuzatilayotgan irodasizlikni keltirib chiquvchi sabablar	156
Dilmurodova Z.D.	Shaxsda qobiliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	159
Ибадуллаева Ш.Н.	Maxsus pedagoglarni kasbий фаолиятга тайёрлаш механизмларини takomillashtiriш ижтимоий-педагогик муаммо сифатida	162
Tojiboev M.N.	Talabalardan tafakkurini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	168
Meyliyeva M.S.	Tafakkurning innovatsion rivojlanishiga pedagogik hamda psixologik faktorlarning ta'siri	176
Mirzraximova G.I.	Nutq faoliyati va ularning xususiyatlari	179
Yunusova X.Sh.	O'zbekiston respublikasida inklyuziv ta'limni tadbiq qilish masalalari	185



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLUYUZIV TA'LIMNI TADBIQ QILISH MASALALARI

*Yunusova X.Sh.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika" kafedrasи  
p.f.f.d.,(PhD)*

**Tayanch so'zlar:** inkluyuziv ta'lif, imkoniyati cheklangan bola, aqli zaiflik, zaif ko'ruchchi, integratsiya, umumta'lif maktabi.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, ребенок с ограниченными возможностями здоровья, умственная отсталость, нарушение слуха, нарушение зрения, интеграция, общеобразовательная школа.

**Key words:** inclusive education, child with disabilities, mental retardation, hearing impairment, visual impairment, integration, comprehensive school.

**Резюме:**

Ushbu maqolada inkluyuziv ta'lifning tatbiq etilishi hamda O'zbekistonda insonparvar ta'lif shakli sifatida rivojlanish bosqichlari, inkluyuziv sinflarda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

**Резюме:**

В данной статье описывается внедрение инклюзивного образования и этапы его развития как формы гуманного воспитания в Узбекистане, а также особенности обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в инклюзивных классах.

**Summary:**

This article describes the implementation of inclusive education and the stages of its development as a form of humane education in Uzbekistan, as well as the specific characteristics of children with disabilities studying in inclusive classes.

Imkoniyati cheklanganlik – qobilyatsizlik emas. Har qanday holatda ham kamchilikda ham bola rivojlanishda davom etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko'proq e'tibor va yordam talab qiladi holos. Ular topshiriq va vazifalarni tez, mukammal bajaramasliklari mumkin, lekin imkoniyat darajasida bajara oladilar.

Hozirgi kunda inkluyuziv ta'lif jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan ta'lif turi hisoblanadi. Inkluyuziv ta'lif intensiv ravishda amaliyotga kirib keladi va buning oqibati ko'plab savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Inklyuziv



ta’lim xorij mamalakatlarida sezilarli darajada rivojlangan bo‘lib, ilmiy-amaliy jihatlari turli tadqiqotlar orqali asoslab berilgan.

Inklyuziv ta’limni tadbiqu etish masalalari Ferguson D.L, Meyer G, Jeanchild L, Juniper L, Loshakova I.I, Yarskaya-Smirnova Y.R, Zadorin I.V, Mixalyuk V.I, Kolesnikova Y.Y, Novikova Y.M, Fedorov A.Slar tomonidan assoslangan.

Imkoniyati cheklangan bolalar shaxsini o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatları Akatov L.I, Basov M.S, Lebedinskiy V.V, Mastukova Y.M, Pevzner M.V kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ta’lim jarayoniga bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash masalalari Leviton N.D, Platonov K.K, Kovalyov A.G, Kandibovich L.A, Chamata P.R, Dyachenko M.I, Kandibovich L.A lar tomonidan tadqiqot ishlari asosida o‘rganib chiqilgan.

Integratsiya jarayoni bugungi kunga kelib dunyo iqtisodiy taraqqiyoti globallashuviga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Geografik jihatdan o‘zaro hamkor tashkilotlarni o‘z ichiga olgan “Klaster” larni barpo etish, integratsiyalashuv jarayonining rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiyotida yangi tizimni shakllantirish bilan bog‘liqidir. Klaster g‘oyasi muassasa hamda tashkilotlarning kelajak iqtisodi uchun kadrlar salohiyatini tubdan rivojlantira olishning innovatsion samarali usuli hisoblanadi. Ma’lum bir hududning raqobatbardosh pedagoglarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ”Pedagogik ta’lim klasteri” ya’ni bir-biri bilan o‘zaro aloqadagi teng huquqli subyektlarning texnologiya hamda integratsiyalashuv natijasida inson resurslarining ta’mindan beruvchi mexanizm sifatida asoslanmoqda. Oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak defektoglarning inklyuziv ta’limga tayyorgarlik darajasini rivojlanirishda, pedagogik shart-sharoitlar mazmun-mohiyatini asoslab berish talab etiladi.

Ta’lim jarayoniga inklyuziv ta’lim amaliyotini joriy etish murakkab jarayon hisoblanib, ijtimoiy-ruhiy ta’sir doirasi, subyektiv va obyektiv ta’sir o‘tkazish, o‘rganilayotgan fanning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy hamda pedagogik xususiyatlar, vazifalar asosida, prinsip va yondashuv xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, inklyuziv ta’lim harbir alohida yordamga muhtoj o‘quvchining psixologik- pedagogik, ijtimoiy, jismoniy, fiziologik va yosh xususiyatlari inobatga olgan holda tadbiqu qilinadi. Shaxsiy rivojlanishi uchun esa pedagogik shart-sharoitlar yaratish taqazo etiladi. Bunday muhitni yaratib olish birmuncha murakkab hamda vaqt talab etadigan jarayon hisoblanib, maxsus ta’lim uchun dasturlar ishlab chiqishga tayangan holda o‘qitish va ta’lim usullarini, maxsus adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo’llanmalar, texnik-dasturiy vositalari, yordamchi xizmat turlaridan fordalanish, alohida yordamga muhtoj bolalarni kerakli texnik hamda metodik yordam bilan ta’mindan berish, guruhli, bolani



o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda individual va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etishni taqazo etadi.

L.S.Suyov hamda V.A.Slaystinning izlanishlari asosida, ketma-ket bosqichlarni shakllantirib olish orqali o‘qituvchini tayyorlash mumkin: shaxsnинг ijodiy taraflama rivojlanishi; pedagogik tadqiqotlar metodologiyasini o‘zlashtirish orqali; innovatsion texnologiyalardan foydalana olish, pedagogik jarayonda innovatsiyalarni joriy etish yuzasidan amaliy ishlarni bajarish. Bu vaqtда o‘qituvchining diqqati faqat imkoniyati cheklangan bolaga qaratilgan bo‘ladi.

P.Sabelnikova fikriga ko‘ra, psixologik-pedagogik bilimlarga tayangan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxsiy tayyorgarliklari asosida professional rivojlanish uchun quyidagilar zarur: inklyuziv ta’limni tushunish hamda taqdim etish orqali uning an’anaviy ta’lim shaklidan farqli o‘laroq; inklyuziv o‘quv muhitida o‘quvchilarning yoshi hamda yoshining psixologik shakllari va xususiyatlarini bilib olishi; sog‘lom bolalar qatorida imkoniyati cheklangan bolalarni birgalikda o‘qitish uchun psixologik va didaktik dizayn usullarini o‘quv jarayoniga tadbiq eta olish.

Zamonaviy pedagogika asosida o‘qituvchining inklyuziv ta’limga tayyorligini aniqlash maqsadida professional kompetensiya konsepsiyasini (V.I.Kashnitskiy, A.Akova, L.A.Petrovskaya) pedagogik faoliyatini tashkil etishni hamda ularning mahoratini yuzaga chiqaradi. Shu asosda ilmiy tadqiqot ishlarida “O‘qituvchining kasbiy malakalari” kabi tushunchalarga turlicha izoh berilgan. Hozirgi kunga kelib kasbiy faoliyatni rivojlantirish hamda o‘qituvchi tashabbusi asosida professional pedagogik faoliyatni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz oliv ta’lim tizimida fanlarni o‘qitish jarayoniga jahonning ilg‘or tajribalarini joriy etish, uzlusiz ta’lim tizimida o‘zaro manfaatdor hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha, maqsadlarni integratsiyalashtirish, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning me’yoriy asoslari yaratildi. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “Fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida turli ta’lim xizmatlari sifatini takomillashtirish, ta’lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish” ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 1- dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli farmonida Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalariga muvofiq, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan



ishlarning samarali yechimlari nazarda tutilgan bo‘lsa, 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoniga ko‘ra ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda mazkur toifa har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqlarini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash kabi vazifalar belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasining rivojlanishi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari yuqori darajada ekanligi, ta’limning gumanistik mazmun mohiyati, har bir insонning bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta’minlab berilganligi, ta’lim olishdagi teng huquqlilikning kafolatlanishiga tayanadi.

Ta’lim sohasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- ta’lim sohasidagi fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolatlanganligi;
- ta’lim olishdagi tenglik, shu bilan birga, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga, ularning sog‘lig‘i hamda bilim qobiliyatlariga asosan, asosiy ta’limning barcha jabhalarida va qo‘srimcha ta’lim olishda shart-sharoitlar yaratilganligi; ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga maxsus ta’lim olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularga pedagogik-psixologik hamda korreksion ko‘mak berish;
- shaxsning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni kamol topishida, yetuk kadrlarni tayyorlashda jamiyat bilan birga davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Zamonaviy jamiyatda kasbiy kompetensiyalar shakllanganligining yuqori darajasiga ega, pedagogik muammolarini hal ega oluvchi mutaxassislar talab etiladi. Bu asosda, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy tarbiyalash orqali amalga oshiriladigan defektologlarning kasbiy faoliyatining ijtimoiy-pedagogik funksiyalari kengaymoqda.

«Maxsus pedagogika» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr talabalar quyidagi kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirishga tayyor bo‘lishi kerak: korreksion-pedagogik, diagnostik-konsultativ, tadqiqotchilik, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy. Ular yaxlit korreksion jarayonning mazmunini ta’minalash imkonini beradi.

Bo‘lajak defektologlarning kasbiy faoliyat turlari va ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyatga yo‘nalganligiga muvofiq quyidagi vazifalarni belgilab olish mumkin: korreksion-pedagogik faoliyatda:




- alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslar rivojlanishiga shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv sharoitlarida nutq nuqsonlarini bartaraf etilishi;

-ta’lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyalash tashkilotlarida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarni o‘rganish, rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi;

- alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlashi jarayonlarida pedagogik-psixologik ko‘makni amalga oshirilishi;

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi ustuvor yo‘nalishlari:



Davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog‘lom, ma’nana yetuk, har tomonlama rivojlangan komil shaxs sifatida voyaga yetkazish hisoblanadi. Buyuk mutafakkir olimlarimizning asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ular o‘z ma’naviy meroslari orqali imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim tarbiyasi

mazmun mohiyatining boy metodologik asoslari yaratilganligi fikrimiz dalilidir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning barchasi jamiyat yaxlit bir butunlik deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar. Binobrrarin, alohida yordamga muhtoj bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a’zosidek ta’lim tarbiya berish hozirgi zamonga o‘xshab, XI-XII asrlardayoq buyuk Sharq mutafakkirlarining diqqat markazidan chetda qolmagan. Juda ko‘plab mamlakatlarda alohida yordamga muhtoj bolalarga tarbiya berishda kompensator imkoniyatlarga tayanish va ijtimoiy moslashtirishni to‘laligicha yo‘lga qo‘yish maqsadida umumta’lim maktablarida o‘qitish davlat siyosati rejasiga kiritildi. Buning natijasida esa 1990- yilda Tailand shahrida Umumjahon Konferensiya bo‘lib o’tdi. Bu konferensiyada “Ta’lim hamma uchun” Umumjahon Dekloratsiyasi qabul qilindi.

“Inklyuziv ta’lim” ingliz tilidan, inclusive, inclusion-uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olish, ma’nolarini bildiradi.



Inklyuziv ta'lim – bu rivojlanishida va ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning umumta'lim maktabida alohida sinfda emas, balki sog'lom tengdoshlari bilan bir sinfda ta'lim olish jarayonidir.

Hamkorlikdagi (inklyuziv) ta'lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Respublikamizda inklyuziv ta'lim jahon tajribasi va siyosati kabi eng muhim, zamonaviy siyosat bo'lib kelmoqda.

Inklyuziv ta'lim – bu shunday ta'lim-tarbiya jarayoni-ki unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiylar tarzda o'z uyi va hududida ularning ehtiyojlariiga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ta'limdagi ehtiyojlari hisobga olingan holda maxsus yordam ko'zda tutilgan maktablarda o'z tenqurlari bilan ta'lim olishi demakdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Шумиловская, Ю.В. Подготовка будущего учителя к работе с учащимися в условиях инклюзивного образования : дисс ... канд. пед. наук : 13.00.08 / Шумиловская Юлия Валерьевна. - Шуя, 2011. 175 с.
2. Токарь, И.Е. Инклузивное образование: опыт и перспективы развития / И.Е. Токарь // Социальная педагогика. - 2011. - №5. - С. 93-105.
3. Shomahmudova R.Sh "Maxsus va inklyuziv ta'lim".-Toshkent.-2011. Uslubiy qo'llanma.
4. Yunusova X.Sh "Innovatsion ta'lim klasteri muhitida bo'lajak defektologlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash" p.f.f.d (PhD) dissertatsiya avtoreferat 15-18 betlar.